O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 8 - yanvar 8-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF–209-son Farmoni ijrosi to‘g‘risida

Mahallalarni qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, mahallabay ishlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta’minlash hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishda ko‘maklashish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF–209-son Farmonining ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–209-son Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Farmon bilan quyidagilar:

respublika, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlarini shakllantirish;

O‘zbekiston mahallalari uyushmasini (keyingi o‘rinlarda — Uyushma), uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo‘limlarini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflarga rozilik berilganligi;

Uyushmaning asosiy vazifalari etib;

mahallaning xalq bilan davlat o‘rtasidagi «ko‘prik» vazifasini amalga oshiruvchi mustaqil va xalqchil tuzilmaga aylanishiga ko‘maklashish;

mahallani jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish, uning jamiyatdagi o‘rni va rolini kuchaytirish, mahalla boshqaruvida aholining faol ishtirokini ta’minlash;

har bir fuqaro o‘zi va oilasining kelajagi, moliyaviy ahvoli va farovonligini ta’minlashda mas’uliyatni sezishi, boqimandalikka o‘rganmaslik hissini yanada kuchaytirish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish;

fuqarolarni o‘z uyi va ko‘chasini ozoda saqlashga, milliy qadriyat va urf-odatlarni hurmat qilishga chaqirish, ma’naviy va ma’rifiy ishlarda mahallaning o‘rnini kuchaytirish, aholi o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash choralarini ko‘rish;

«mahalla yettiligi» tomonidan mahallaning ichki resurslarini aniqlash hamda ularni ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish uchun safarbar etishda ko‘maklashish;

mahallalardagi muammolarning o‘z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining sa’y-harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirish va yo‘naltirish;

mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, kambag‘al oilalarga ajratilayotgan budjet mablag‘lari va boshqa mablag‘larning maqsadli va manzilli yo‘naltirilishini ta’minlash;

mahallalarning moddiy-texnika ta’minotini yaxshilash, ularga ajratiladigan mablag‘larni markazlashgan tarzda taqsimlash, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

mahalla mas’ullarining malakasini oshirish, ularda zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalari shakllanishiga ko‘maklashish belgilanganligi;

Respublika mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashiga Bosh vazir, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman

(shahar) mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlariga tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi va hokimlar raislik qilishi;

Uyushma raisi maqomi, tibbiy, transport va maishiy ta’minot sharoitlari bo‘yicha Bosh vazir o‘rinbosariga tenglashtirilishi;

Uyushmaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo‘limlari rahbarlari maqomi, tibbiy, transport va maishiy ta’minot sharoitlari bo‘yicha tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi o‘rinbosariga, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) hokimi o‘rinbosariga tenglashtirilganligi;

2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha tuman va shaharlarda «Mahalla budjeti» tizimi amaliyotga joriy etilsin. Bunda:

a) har bir mahalladagi Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasiga quyidagi mablag‘lar yo‘naltiriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizi;

mahalla idoralari orqali ko‘rsatilgan davlat xizmatlari uchun undirilgan yig‘imning 10 foizi;

mahalladagi hududi 2 000 kvadrat metrgacha bo‘lgan davlat ko‘chmas mulk ob’ektlarini hokimi yordamchisi onlayn-buyurtmanomasiga asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektron onlayn-auksion savdolari orqali sotishdan tushadigan mablag‘lar, baholash va sotish xarajatlari chegirilgan holda;

mahallaning mol-mulkini belgilangan tartibda ijaraga berishdan olinadigan mablag‘lar;

Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomda belgilanadigan boshqa mablag‘lar;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlari Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy

muammolarini hal etish jamg‘armasi mablag‘larini qayta taqsimlagan holda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda ortda qolayotgan mahallalarga yo‘naltirishi mumkin etib belgilanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Mahallaning jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirish hamda sohada **boshqaruv tizimini** takomillashtirish maqsadida **2024-yil 1-yanvardan** boshlab mahallada **quyidagi ishlash tartibi** yo‘lga qo‘yilsin:

a) mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori **mahalla “yettiligi**”ni tashkil qiladi;

b) quyidagi **masalalarga**:

mahalla raisi, hokim yordamchisi, **yoshlar yetakchisi** va **xotin-qizlar faoli** – mazkur qarorning **1–4-ilovalarida** keltirilgan vazifalarga;

profilaktika inspektori – mahallada huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini **saqlash** va **xavfsiz** muhitni ta’minlash, **fuqarolarning qulay atrof muhitga bo‘lgan huquqlarini** amalga oshirishda ko‘maklashishga;

ijtimoiy xodim – og‘ir ahvolga tushib qolgan va og‘ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar va oilalarni aniqlash, ularning ehtiyojlariga qarab, kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy **xizmat ko‘rsatish** va **yordamlarni** tashkil etishga;

soliq inspektori – tadbirkorlarga soliq xizmatlarini ko‘rsatish, soliq bazasini kengaytirish, soliqlarni undirish va **mahalla budjetining** daromadini shakllantirishga **mas’ul etib tayinlansin**.

5. 2024-yil 1-martdan boshlab “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” (keyingi o‘rinlarda – daftarlar) orqali yordam va subsidiyalar berishda byurokratiyadan xoli va mahallaning hamjihatligini aks ettiruvchi quyidagi yangi tartib joriy etilsin:

jismoniy shaxslarni daftarlarga kiritish, shuningdek, ijtimoiy daftarlar hamda Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hamda Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi orqali beriladigan yordam va subsidiyalar

mahalla “yettiligi”ning **kollegial qarori asosida amalga oshiriladi;**

har oyning 5-sanasiga qadar daftarlar uchun mablag‘larni **taqsimlovchi mas’ul tashkilotlar tomonidan** jamg‘armalarda shakllangan mablag‘lar daftarlarga kiritilgan fuqarolar soniga mutanosib ravishda tegishliligi bo‘yicha **har bir mahalla kesimida taqsimlanadi;**

5-ilovada keltirilgan **ijtimoiy yordam** va **subsidiyalar mahalla “yettiligi”**ning kollegial qarorlari asosida amalga oshiriladi;

hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va ijtimoiy xodim ularga yuklatilgan vazifalar yuzasidan jismoniy shaxslarni tegishli daftarlarga kiritish va chiqarish hamda **ijtimoiy yordam**
va **subsidiyalar** ajratish bo‘yicha hujjatlarni shakllantirib, **mahalla “yettiligi”ning boshqa barcha a’zolariga umumiy ko‘rib chiqish** va **qaror qabul qilish uchun taklif kiritadi;**

“Temir daftar”ni yuritish funksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi **Ijtimoiy himoya milliy agentligi** va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan yuritiladi;

“Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi tomonidan ko‘rsatiladigan yordamlar og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan fuqarolarni og‘ir vaziyatdan chiqarish hamda ularni shunday vaziyatga tushib qolishining oldini olish maqsadida ijtimoiy xodimning “Mahalla yetiligi”ga ko‘rib chiqish uchun kiritiladi;

ijtimoiy yordam va subsidiyalar aholining **kambag‘allikdan chiqishini** ta’minlash uchun **maqsadli** va **manzilli** yo‘naltirilishi hamda qarorlar qabul qilinishida **ochiqlik, haqqoniylik, ijtimoiy adolat** va **shaffoflik** tamoyillariga rioya qilishi uchun mahalla “yettiligi” **mas’ul va javobgar** bo‘ladi;

mahalla “yettiligi”ning faoliyati **asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari** (KPI) bo‘yicha alohida baholanadi. Bunda ko‘rsatkichlar mazkur xodimlarning **ish beruvchilari tomonidan Uyushma bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi;**

mahalla raislari hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar

faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektorlari faoliyatini KPI asosida baholashda 20 foiz ball berish huquqiga ega bo‘ladi.

6. Viloyat hokimining o‘rinbosari F.Qosimov:

Ijtimoiy himoya milliy agentligi hududiy boshqarmasi (Asronqulov), shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarni qayta xatlovdan o‘tkazsin va tizimni samarali ishlashini tashkil etsin;

Saxovat va ko‘mak» jamg‘armasi tomonidan ko‘rsatiladigan yordamlar fuqarolarning og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish va shunday vaziyatga tushganlarni og‘ir vaziyatdan chiqarish maqsadida ijtimoiy xodim tomonidan mahalla «yettiligi»ga ko‘rib chiqish uchun kiritilgan holda ko‘rsatilishini nazoratga olsin.

7. Ushbu qarorni nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi v.v.b **X.Sirojitdinov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 8-yanvardagi
8-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Маҳалла раисининг асосий вазифалари

1. Маҳалла **ободлигини таъминлаш**, шу жумладан, “Обод маҳалла”, “Обод кўча”, “Обод хонадон” мезонларини жорий этишда **аҳолининг фаол иштироки ва масъулиятини ошириш, “Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси** доирасида дарахт ва бута кўчатлари экиш бўйича тарғибот ишларини амалга ошириш.

*(Ҳар ойда бир маротаба маҳалладаги барча кўчаларда **оммавий ҳашар** уюштиради, камида **2 та эҳтиёжманд оилаларнинг** таъмирталаб хонадонида қўни-қўшниларни жалб этган ҳолда, ҳашар ташкил этади).*

2. Миллий қадриятлар, **урф-одатлар** ва **анъаналарни** тарғиб қилиш, соғлом **ижтимоий-маънавий** муҳитни сақлаш, **тўй-маросимларни исрофгарчиликларсиз ихчам ўтказилишини таъминлаш**.

*(Ҳар чоракда **бир маротаба** диний уламолар, маданият ходимлари, ёзувчи ва шоирларни аҳоли билан миллий қадриятлар ва урф-одатларни сақлаш, тўй-маросимларни ихчам ўтказиш бўйича **учрашувлар ташкил этилишини** таъминлайди).*

3. Маҳаллага бириктирилган давлат органлари вакилларини **аҳоли муаммоларини ҳал этишга сафарбар этиш** ва **муаммоларга ечим топишини таъминлаш**.

*(Маҳалла кенгашида ҳар ойда **камида 5 та** маҳаллага бириктирилган давлат органлари вакилларини маҳаллада амалга оширган ишлари юзасидан **ахборотини эшитиб,** муаммоларни ҳал этишда кўмаклашади).*

4. Маҳаллада фаолият юритувчи ҳоким ёрдамчиси, хотин-қизлар фаоли, ёшлар етакчиси, профилактика ва солиқ инспекторлари, ижтимоий ходимга **умумий раҳбарлик қилиш**, **маҳаллани ҳар**

томонлама ривожлантиришда улар имкониятларидан самарали фойдаланиш.

*(Ҳар ҳафтада маҳалладаги ҳоким ёрдамчиси, хотин-қизлар фаоли, ёшлар етакчиси, профилактика ва солиқ инспекторлари, ижтимоий ходимларни **ҳисоботини эшитади** ва уларни ҳар бири ҳар ойда камида **10 тадан** муаммоли масалаларни ҳал этишини назоратга олади).*

5. Маҳалла ҳудудида **қонунчилик ҳужжатлари ижроси устидан жамоатчилик назоратини ўрнатиш**, шу жумладан, таълим, тиббий хизмат, спорт, савдо ва хизмат кўрсатиш қоидаларига риоя этилишини назорат қилиш.

*(Ҳар ҳафтада бир маротаба маҳалла ҳудудидаги таълим ташкилотида **ўқувчиларнинг давомати**, оилавий поликлиникаларда (қишлоқ врачлик пунктларида) аҳолига кўрсатилаётган **тиббий хизмат** ва патронаж ҳамшираларининг **оилаларга ташрифи**, спорт ташкилотларининг аҳоли учун **очиқлиги**, савдо ва хизмат кўрсатиш объектлари атрофининг **тозалиги** ҳамда **дарахтларни парваришлаш** ҳолатини ўрганади).*

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 8-yanvardagi
8-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Ҳоким ёрдамчисининг асосий вазифалари

1. Доимий даромад манбаига эга бўлмаган ишсиз аҳолини касб-ҳунар ва тадбиркорликка **ўқитиш ҳамда бандлигини таъминлаш** чораларини кўриш.

*(Ҳар ойда камида **10 нафар** ишсизларни даромадли меҳнат билан **бандлигини таъминлаш** чорасини кўради).*

2. Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳолининг тадбиркорлик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш мақсадида **кредит ва субсидиялар ажратилишида** кўмаклашиш.

*(Ҳар чоракда **бир маротаба** кредит ёки субсидия ажратилган фуқароларнинг уйига бориб, тадбиркорлик ва даромад топишга қаратилган **фаолиятини юриб кетишига** кўмаклашади).*

3. Ўзини ўзи банд қилган ҳамда ташаббускор фуқароларнинг тадбиркорликка қизиқишларини аниқлаш, уларни **кичик бизнес субъектига айланишига** ёрдам бериш.

*(Ҳар чоракда камида **5 нафар** ўзини ўзи банд қилган ҳамда ташаббускор фуқароларни якка тартибдаги тадбиркор ёки оилавий корхона сифатида иш бошлашига ёрдам беради).*

4. Аҳолига ижара ҳуқуқи асосида ажратилган ер майдонлари ва томорқаларда экилган экинлар ва етиштирилган **маҳсулотлар ҳисобини юритади**, шунингдек, деҳқон хўжаликлари билан экспортёр, брокер ва қайта ишловчи корхоналарнинг **хамкорлигини ташкил этади**.

5. Маҳаллаларда кичик ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш бўйича **микролойиҳалар манзилли дастурини** шакллантиради ва лойиҳаларни амалга оширишга **тўсиқ бўлаётган муаммоларнинг** ҳал этишга кўмаклашади.

6. Маҳалладаги бўш турган бино-иншоотлар ва ер майдонларини аниқлаб, уларни белгиланган тартибда **аукцион савдоларига чиқариш** чораларини кўради.

7. Маҳалладаги камбағал оилаларни **ҳар бири** учун **“индивидуал дастур”** ишлаб чиқади ва уларнинг **даромадини ошириш** чора-тадбирларини белгилайди.

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 8-yanvardagi
8-11-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Ёшлар етакчисининг асосий вазифалари

1. Маҳаллаларда **ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш**, жумладан уларни **“Беш ташаббус олимпиадаси”**да иштирок этишга жалб этиш.

(Ҳар ойда камида 20 нафар ёшларни *спорт, мусиқа ва фан тўгаракларига жалб этади.*

Ҳафтада бир маротаба *спорт мусобақалари, мусиқа ва рақс танловларини ташкил этади).*

2. Ишсиз ёшлар ва **мактаб битирувчилари бандлигига кўмаклашиш**, жумладан **“Ёшлар бандлиги дастури”**ни маҳаллада амалга ошириш.

(Маҳаллада ишсиз ёшлар ва мактаб битирувчиларини рўйҳатини шакллантиради ва ҳоким ёрдамчиси билан биргаликда ***бандлигини*** *таъминлайди.*

Ҳар ойда ***бир маротаба*** *мактабнинг битирувчи синф ўқувчилари билан учрашиб, олий таълим муассасаси ва мутахассислик йўналишини танлаш ҳамда кириш имтиҳонларига* ***тайёргарлик кўришга*** *ёрдам беради).*

3. Давлат кўмагига муҳтож **“оғир” тоифадаги ёшлар**нинг **ҳаётда ўз ўрнини топишларига кўмаклашиш.**

(Маҳаллада “оғир” тоифадаги ёшларнинг яшаш манзили ва иш жойига ҳар ойда камида ***бир маротаба*** *бориб, бириктирилган раҳбарлар билан биргаликда ҳаётда ўз ўрнини топишига кўмаклашади)*

4. Ҳуқуқбузарлик содир этишга мойиллиги бўлган ёшлар билан, шунингдек, профилактика инспектори билан биргаликда ҳуқуқбузарлик содир этишга мойиллиги бўлган **вояга етмаганлар** билан тизимли ишлаш.

*(Ҳуқуқбузарлик содир этишга мойиллиги бўлган ёшлар ва вояга етмаганларни ҳар бири билан **индивидуал ишлайди).***

5. “Ёшлар дафтари”га киритилган ёшларнинг муаммоларини ҳал этиш, жумладан ёшларга кўрсатиладиган **30 та ёрдам** турларидан самарали фойдаланиш.

*(Ҳар чоракда **бир маротаба** ёрдам кўрсатилган ёшларнинг уйига бориб, лойиҳаларини амалга оширишга кўмаклашади).*

6. Хориждаги **ватандош** ёшлар билан ишлаш ва уларни қўллаб-қувватлаш.

*(Ҳар ойда камида бир маротаба хориждаги ёш ватандошлар билан **мулоқот қилиш** орқали уларнинг фаолиятини ўрганади ҳамда **Ватанга қайтиб фаолиятини юритиши** учун маҳалла “еттилиги” билан зарур чораларни кўради)*

7. Иқтидорли ёшларни излаб топиш, истеъдодини рўёбга чиқариш ва уларни қўллаб-қувватлашга кўмаклашиш.

*(Ҳар ойда камида 1 нафар **иқтидорли ёшлар**ни аниқлайди, истеъдодини рўёбга чиқариш бўйича улар билан индивидуал ишлайди, мавжуд ёрдам турлари орқали уларни қўллаб-қувватлаш чораларини кўради)*

8. Ёшлар ўртасида **китобхонликни кенг тарғиб қилиш**, жумладан ёшлар етакчисининг ўзи ҳар ойда камида **1 та китоб** мутолаа қилиш орқали шахсий намуна кўрсатиш.

*(Ҳар чоракда **камида бир маротаба** маънавият, маданият ходимлари, ёзувчи ва шоирларни жалб қилган ҳолда ёшлар ўртасида **китобхонликка оид тадбирларни** ташкил этади)*

9. Шахсий ривожланиш, жумладан “Ибрат фарзандлари” лойиҳаси доирасида камида **1 та хорижий тил**ни мукаммал ўрганиш.

(Маҳалла ёшларини хорижий тилларни ўрганишга доимий қизиқтириб боради)

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 8-yanvardagi
8-11-0-Q/24-son qaroriga
4-ilova

Хотин-қизлар фаолининг асосий вазифалари

1. “Соғлом оила – соғлом жамият” тамойилларини тарғиб қилиш, хусусан яқин **қариндошлар ўртасидаги** ва **эрта никоҳни олдини** олиш, репродуктив саломатликни яхшилаш, **оилавий қадриятларни мустаҳкамлаш** бўйича мақсадли чора-тадбирларни амалга ошириш.

*(Ҳар ойда **камида 20 та** оилага кириб, оилавий қадриятларни тарғиб этади ва никоҳларни қонунийлигини таъминлайди.*

*Маҳаллада ҳар ойда ажрим ёқасига келиб қолган ва низоли оилаларнинг **5 тасини** соғлом турмуш тарзига қайтаради).*

2. Хотин-қизларнинг **ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, таълим имкониятларини кенгайтириш**га кўмаклашиш.

*(Ҳар ойда **бир маротаба** мактабдаги ўқувчи қизлар билан учрашиб, уларнинг **таълим олишга қизиқишини оширади**.*

*Ҳар ойда камида **5 нафар** маҳалладаги хотин-қизларни тадбиркорлик, касаначилик ва ҳунармандчиликка жалб қилади).*

3. Хотин-қизларнинг муаммоларини **ўз вақтида аниқлаш**, ушбу муаммолар юзасидан давлат органлари ва ташкилотларга мурожаат қилиш, ёрдамга муҳтож бўлган ва оғир ижтимоий аҳволга тушиб қолган хотин-қизларга **ижтимоий-ҳуқуқий, психологик** ва **моддий ёрдам** кўрсатишни ижтимоий ходим билан биргаликда ташкил этиш.

*(Ҳар ойда камида **10 нафар** оғир ижтимоий аҳволга тушиб қолган хотин-қизларга **ижтимоий-ҳуқуқий, психологик** ва **моддий ёрдам** кўрсатишни ташкил этади).*

4. Хотин-қизлар ўртасида **ижтимоий профилактика** ва **мослаштириш** ишларида ҳамкорлик қилиш, **тазйиқ ва зўравонлик**ка нисбатан муросасизлик муҳитини яратишда иштирок этиш.

*(**Ҳар ойда бир маротаба** жазони ижро этиш муассасаларидан қайтган ва профилактик ҳисобда турган хотин-қизларни хонадонига бориб, муаммосини ўрганади.*

Хотин-қизларга нисбатан тазйиқ ва зўравонлик ҳолатларини аниқлайди ва профилактика инспекторига хабар беради).